

O'ZBEK VA RUS TILLARIDAGI EVFEMIZM/DISFEMIZMLAR O'ZARO TARJIMASINING FUNKSIONAL-PRAGMATIK (DINAMIK) MODELI

Kadirova Xurshida Batirovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

E-manzil: qodirova@navoiy-uni.uz

Annotatsiya: Tarjimashunoslikda aynan funksional-pragmatik model alohida model sifatida o'rganilmagan. Funksional, kommunikativ funksional modellar ayrim ishlarda tadqiqot obyekti bo'lgan. Funksional model "skopos" nomi ostida nemis tilshunosligida birinchi bor qayd etilgan. Unda til birliklarining maqsadli qo'llanilishi tarjimada ham o'z ifodasini topishi kerakligi haqidagi nazariya ilgari suriladi. Iks-femik birliklar esa aynan maqsadli birliklar sifatida qaraladi. Bunda pragmatik vaziyat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, iks-femik birliklarning tarjimasida funksional-pragmatik modeldan foydalanish samarali natijani beradi.

Kalit so'zlar: *funksional-pragmatik model, scopos nazariyasi, kommunikativ yondashuv, maqsadga qaratilgan nutq tarjimasi*

"Modellashtirish "tarjima jarayonini tafakkur qilishga" [1] yordam beradi va tarjima faoliyatining kompleks modelini ishlab chiqish ham mashina, ham inson tarjimasi uchun dolzarb vazifadir" [4].

L.L.Nelyubinning "Tarjimashunoslikning izohli lug'ati" [12] dagi ta'rifga ko'ra, tarjima faoliyati modeli to'rt bosqichni o'z ichiga oladi. Tarjimini amalga oshirishning birinchi bosqichida matnning umumiy tuzilishidagi so'zlarni aniqlash va dastlabki tushunish amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda matnning yaxlitligi va uning alohida birliklari mazmunini chuqurroq tushunish amalga oshiriladi. Uchinchi bosqich – tarjimonning maqsad tili vositalaridan foydalangan holda asl nusxaning semantik va stilistik axborotini qayta yaratish bo'yicha harakatlari. Muallif to'rtinchi bosqichni tarjimonning "o'zini o'zi tahrirlash nazorati" deb ataydi.

Tarjimaning funksional modelini ayrim adabiyotlarda **skopos** model deb ham atashadi. "Skopos nazariyasi birinchi marta tilshunos Xans Jozef Vermeer tomonidan 1978-yilda Germaniyaning Lebende Sprachen jurnalida chop etilgan maqolasida paydo bo'ldi. Nazariya tarjimaning formal nazariyalaridan funksionallik va madaniy tafakkur muhimligiga urg'u beradigan nazariyalarga o'tishni o'zida aks ettirdi. Skopos yunoncha so'z bo'lib, "maqsad" degan ma'noni anglatadi. Vermeer tomonidan ishlab chiqilgan Skopos tarjimaga funksional yondashish kerakligi haqidagi nazariyadir. Tarjimalar maqsadli auditoriyaning qadriyatlari, umidlari, hayotiy tajribasi va madaniy me'yorlarini aks ettirishi kerak. Manba matnining mo'ljallangan maqsadi va ta'siri aniq so'zlar yoki ishlatilgan lingvistik uslubda emas, balki natijalarda aks etishi kerak"¹. Iks-femik birliklar esa muayyan maqsadga qaratilganligi bilan xarakterlidir. U maqsadli auditoriyaga qaratilishi kerak. Tarjima

¹ <https://word-connection.com/skopos-theory-in-translation/#h-what-is-skopos-theory-in-translation-studies>

shunchaki lingvistik transformatsiya akti emas. Manba materiali maqsad bilan yozilgan va aynan shu maqsad tarjimada yetkazilishi kerak. Tarjima asl matn bilan bir xil maqsadga xizmat qilsagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.

Aksariyat adabiyotlarda kommunikativ-funksional model [3] termini uchraydi. "Yevropa mamlakatlarida tarjimonlarni tayyorlash doktrinasini va tarjima standarti talablari uchun asos sifatida funksional yondashuvga asoslangan yana bir model, skoposteoriya yoki kommunikativ funksional model keng tarqaldi" [10], deyiladi bir maqolada. "Kommunikativ model tarjimada madaniy moslashuvga alohida e'tibor beradi. "Skopos" nazariyasi tarjimashunoslikka kommunikativ yondashuv doirasida vujudga kelgan va tarjimaning manba tilini retsiptiyentiga qaratilishiga urg'u beradi"². Demak, kommunikativ model axborotning aniq va yashirin maqsadlariga qaratilgan jihatini, pragmatik taxminlar, nutq taktikasi va madaniyatlararo muloqotning boshqa omillarini hisobga oladi. Shuning uchun, iks-femik birliklarning tarjimasi funksional-pragmatik model asosida tarjima qilinishga loyiq.

A.D.Shvaytserni haqli ravishda tarjimaga kommunikativ yondashuvning, xususan, uning funksional psixologik jihatlarini o'rganishning asoschilaridan biri deb hisoblash mumkin. U tarjimaning invarianti sifatida matnning funksional dominantligi g'oyasini ilgari surdi, shuningdek, tarjima tarixida birinchilardan bo'lib funksional pragmatik tarjima modelini ishlab chiqdi va uni "dinamik" [20, 116] deb atadi.

A.D.Shvaytser tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik determinantlarining u yoki bu konfiguratsiyasi asosida tarjimon tomonidan qaror qabul qilish jarayonining tavsifini beradi. Olimning fikricha, tarjimon tomonidan qaror qabul qilish jarayoni ikki asosiy bosqichdan iborat: "1) tarjima strategiyasini ishlab chiqish va 2) ushbu strategiyani amalga oshirishning o'ziga xos tilini aniqlashdan (bu turli xil o'ziga xos texnikalarni o'z ichiga oladi)" [20, 121].

Iks-femizmnining o'ziga xosligi, uning ijtimoiy-madaniy va axloqiy qadriyatlarni, dunyoqarash va tafakkur xususiyatlarini nafaqat alohida shaxslarning nutqida, balki umuman zamonaviy muayyan jamiyat nutqi portretida ifodalash xususiyatiga ega. Bu birliklarni boshqa tilga o'girishda tarjimonning manba tilidagi jamiyatda qabul qilingan ba'zi hodisalarni to'g'ri baholashga, ular uchun nima yaxshi, maqbul va nima noo'rin, axloqiy me'yori bo'lmasligini aniqlashga qaratilgan diqqat-e'tibori katta ahamiyatga ega. Madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq iks-femalarning o'zgaruvchan ma'noga egaligi sababidan bu o'zgarishlarni muntazam ravishda o'rganish zarurati kelib chiqadi. Bunda qo'yilgan masalaning o'rganish obyekti sifatida adabiyot, xususan, badiiy tarjima maydonga chiqadi.

Ma'lumki, evfemizatsiya va disfemizatsiya badiiy matnlarda tilning uslubiy vositalaridan biri sifatida ishlatiladi. "Bu uslubda evfemizmlar nafaqat gapni yumshatish, balki estetik vazifasini ham bajaradi" [11, 97] degan edi Moskvina. Ammo disfemizmi to'g'risida bunday deb bo'lmaydi. Uning qo'llanilish vaziyatida nutq sohibining tabiati, milliy madaniyati, tarbiyasi kabi qirralari kashf etiladi. U

² <https://studfile.net/preview/2915646/page:12/>

evfemizm singari tilga badiiy shakl yoki yumoristik samara beradimi yoki yo'qmi, yorqin badiiy obrazlarni yaratishda qahramon obrazini beradimi yoki yo'qmi, har qalay, disfemizm asar muallifi tomonidan qo'llanilishga haqli usul bo'lib, tarjimada manba tilini o'girma tilda yetkazish uchun qo'llanilishi munozarali masaladir. Zero, u evfemizmdan badiiy matnda dekorativ funksiyani bajarishi mumkin emas. Ammo ikkala hodisa ham muayyan maqsadga qaratilganligi bilan xarakterlidir.

*“Shu daqiqa unda ham, birdan aybi ochilib, sharmanda bo'lgan kishilarda yuz beradigan hodisa yuz berdi. U siri ochilgandan keyin xotini oldida **basharasiga** qanday tus berishini oldindan o'ylab qo'ymagan edi”* [15, 5].

Tilshunoslikda nominativ birliklarni o'rganishda semantikaning konnotativ jihatiga alohida e'tibor beriladi. V.N.Teliyaning fikriga ko'ra “konnotatsiya – til birliklari semantikasiga uzual yoki okazional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmun mohiyat” [14, 5]dir. Shunga ko'ra, konnotatsiya so'zlovchining borliqni ifodalash vositalariga nisbatan munosabatiga bog'liq bo'lgan jihatdir. *“Yuz, bet, chehra, ruxsor, aft, bashara, turq* kabi so'zlar qatorida tegishli nutq vaziyati va subyektiv nuqtayi nazarga muvofiq'ini tanlash so'zlovchining o'ziga berilgan imkoniyat ekanligi ma'lum” [19]. Tarjimada esa pragmatik modallikni yo'qotish mumkindir, ammo qo'shish, va eng asosiysi, salbiy tomonga o'zgartirish tarjima tili o'quvchisida manba tilidagi mental madaniyat to'g'risida noto'g'ri tasavvur uyg'onishiga olib keladi. Bu jumla asliyatda quyidagicha: *“С ним случилось в эту минуту то, что случается с людьми, когда они неожиданно уличены в чем-нибудь слишком постыдном. Он не сумел приготовить свое **лицо** к тому положению, в которое он становился перед женой после открытия его вины”* [16, 17].

Har qanday lisoniy birliklarni qo'llash yozuvchining o'ziga xos uslubi bo'lib, bunda uning shu birlikka bo'lgan munosabati, so'z tanlash va uni qo'llashdagi funksional-pragmatik o'ziga xosligi muhim o'rin tutadi. Bunda tarjimon asliyat bilan “kimo'zar” o'ynashdan o'zini tiyishi, neytral vazifadagi birlikka hosila ma'no berishdan o'zini olib qochishi, eng asosiysi, disfemik kayfiyat uyg'otishdan saqlanishi kerak.

“Yuz, aft, bet, bashara, turq, chehra, jamol leksik paradigmasida barcha a'zolarining denotativ semalari bir xil: “inson a'zosi”, “boshning old qismi”. *Yuz* sememasida konnotativ sema mavjud emas *bet, aft, bashara, turq* sememalarida “salbiy munosabat” konnotativ semasi mavjud bo'lsa, *chehra, jamol* leksemlari sememasida “ijobiy munosabat” konnotativ semasi mavjud” [18, 100].

A.Hojiyev *bet* so'zini izohlar ekan, uning “yuz so'ziga juda yaqinligini, ammo unga nisbatan sal salbiy ottenkaga ega” [17]ligini aytadi. Graduonimik jihatdan *bashara* leksemasi *bet* leksemasidanda quyiyoq pozitsiyani egallashi esa kundenk ravshan. Sinonimik qatorda evfemik va disfemik birliklar ortofemik ifodali birlikka nisbatan musbat va manfiy qutblarni egallab, o'zaro ifoda bo'yog'i, subyektiv munosabat darajasi bilan farqlanadi. Shuning uchun, bu birliklar sirasiga denotativ

darajalanishni aks ettiruvchi graduonimiyadan ko'ra gradatsiya (uslubiy darajalanish)ni qidirish maqsadga muvofiq. Demak, uslubiy jihatdan tarjimon to'la ma'noda neytral ifodaga salbiy ottenka berib, xatoga yo'l qo'ygan. Quyidagi misolda esa u evfemik ifodani disfemik ifodaga almashtirganini ko'ramiz: *Она, это вечно озабоченная, хлопотливая, и недалекая, какою он считал ее, Долли, неподвижно сидела с запиской в руке и с выражением ужаса, отчаяния и гнева смотрела на него. // Hamisha nimaningdir g'adini yeb urinib yuradigan, erining fikricha **kaltafahm** hisoblangan Dolli xatni ushlaganicha qimir etmay o'tirar, dahshat, umidsizlik va g'azab ifoda etgan ko'zlari bilan eriga tikilib qarar edi.*

Ikkala birlikning o'z tarkibiy darajalanishida iks-femiklik qiymati yuqori va past birliklar ajratiladi. Xususan, *kaltafahm* ifodasi asar muallifining *недалёкий* ifodasi bilan ekvivalentlik nuqtayi nazaridan bir qatorda bo'lsa-da, undan salbiyroq munosabatni ifodalash darajasi yuqori ekanligi bilan farqlanadi. Uning o'rniga *kaltabin* ifodasi muayyan ma'noda funksional-pragmatik mos kelishi mumkin edi.

Qiyoslaymiz:

Kaltafahm – [f. + a. *كلتفههم* – fahmi kalta, tushunchasi tor] darrov tushunib uqib olmaydigan, aqli, fahmi yetmaydigan; fahmi kalta.

Kaltabin – [f. *كلتبين* – yaqin, qisqa masofani ko'ruvchi; uzoqni ko'rmaydigan] Hozir ko'ziga ko'rinib turgan narsalar asosida hukm chiqarib, uning oqibatini ko'rmaydigan.

Demak, *kaltafahm* va *kaltabin* birliklari darajalanish qatori “salbiy bo'yoqning o'sib borishi” belgisi asosida tuzilgan bo'lib, ularning iks-femiklik xususiyati ana shu pozitsiyadan kelib chiqib aniqlanadi. “Kaltalik” “ahmoqlik” belgisi ekan, uning qo'llanilish doirasi ko'pincha disfemizatsiyani, biroq ortofemik *ahmoq* ifodasidan ko'ra nutq vaziyatida evfemizatsiyani tashkil etishi bilan ham ahamiyatlidir. Bu birliklar Abdulla Qodiriy ijodida qo'llanilgan boshqa birliklar bilan darajalanish o'qida quyidagi pozitsiyani egallaydi:

Shuni aytib o'tish kerakki, Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asarining tarjimasida ham O'zbek oyimga nisbatan *недалёкий* birligi nisbatan o'rinli qo'llanilgan:

*“Юсуфбек-хаджи, хорошо зная **взбалмошный** характер своей **недалёкой** жены, решил не рассказывать ей ничего о том, что произошло с Атабеком, не раскрывать его тайн, но счел необходимым предупредить Узбек-аим о приезде маргиланской невестки и ее родителей”* [7, 259].

*“Yusufbek hoji **chala-dumbul tabiatlik** xotinining **fe'li xo'yini** yaxshi bilgani uchun o'tkan voqi'larni, ya'ni Otabek sirlarini unga ochmasliqqa qaror bergan bo'lsa ham, ammo marg'ilonliq kelin va qudalarning kelishlaridan xabar berishni lozim deb topdi”* [21, 164].


Asliyatda “dumbullik” ko'chma ma'noda “hayot tajribasiga ega bo'lmagan”, “g'o'rlik” mazmunida kelib, aslida, uning “chala”ligi esa “g'o'rlik” emas, balki “aqllilik”ka yarim barobar yetmagan ma'nosini berishi kerak, ya'ni “g'o'rlik”dan biroz yuqori – “aqllilik”ka yaqinroq. Lekin “chala” so'zining o'zi salbiy ottenkaga

ega bo'lgani uchun nutq vaziyatida – xalq tushunchasida bu birikma salbiy birlik sifatida qabul qilinadi. Tarjima tilida shu hosila ma'no uzvlarining mavjudligini ko'ramiz. Konnotatsiya emotiv qiymatga ega bo'lib, bu birlik manba tilidagi mental borliqni pragmatik to'g'ri baholagan holda idrok etilish va aks ettirish mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Nutq pragmatikasi bilan bevosita va uzviy bog'liq bo'lgan evfemizmning ta'sir etish funksiyasidan samarali foydalanilgan.

Взбалмошный характер va *fe'li xo'yi* birliklari alohida olinganda noto'liq (privativ) ziddiyat hosil qiladi. Mazkur birliklarning qo'llanilishi har qaysi tilda idrok etilish darajasi (axloqiy, irim, nutq madaniyati, saviya, ijtimoiy soha) talabi bilan “yumshoq yoki yumshoq emas”ligi belgisiga ko'ra *fe'li xo'yi* majhul, *взбалмошный* manfiy munosabat kasb etadi. Demak, bu badiiy tarjimada ham muayyan miqdorda evfemik va disfemik vaziyat almashinuviga duchor bo'ladi.

Paradoks ravishda, aksariyat qo'pol so'zlar va iboralar (disfemizmlar) – avvallari tabulashtirilgan leksikaga tenglashtirilgan, keyin esa xalq tomonidan nozik hisoblangan kasallik, jinsiy aloqa, o'lim kabi mavzularni tasvirlashda ataylab yumshatilgan sobiq evfemizmlardir. [9] Darhaqiqat, tilning ichki resursida ham bunday almashinuv sodir bo'lishi endilikda sir emas. Buni biz o'zbek tilidagi “bokira” so'zi bilan tahlil qilishimiz mumkin. “Anna Karenina”ning tarjimasida Levin nutqida qo'llanilgan bu so'zning muayyan miqdorda quyi uslub ottenkasi sezilib turadi: “Masalan, sen uylangansan, sen bu hisni bilasan... shunisi dahshatliki, biz anchagina yashagan, o'tmishda... muhabbat emas, gunoh orttirgan odamlarmiz. Birdan **pokiza**, **bokira** bir vujudga yaqinlashamiz; bu jirkanch narsa, shuning uchun bunday odam o'zini noloyiq deb his etolmay turolmaydi” [15, 51].

Bu tushunchaning tabu varianti tilimizda yo'qolib ketgan bo'lib, arabchadan olingan “dastlabki meva” ma'nosini beruvchi “bokira” leksemasi uni yumshatish uchun qo'llanilgan. Endilikda bu so'zni eshitgan odam uchun uning yashirin ma'nosi sir bo'lmay evfemiklik xususiyatini yo'qotib, “er ko'rmagan”, “turushga



chiqmagan” ma’nolari ostida tabu o’rnini sekin-sekin egallamoqda. Tabuning o’zini qo’llash esa disfemizatsiyani yuzaga keltiradi. Manba tilidagi ijobiy qahramon nutqida esa nozik mavzuga bo’lgan munosabati, ichki madaniyati, istihola saqlanib qolingani: *Вот ты женился, ты знаешь это чувство... Ужасно то, что мы – старые, уже с прошедшим... не любви, а грехов... вдруг сближаемся с существом чистым, невинным; это отвратительно, и потому нельзя не чувствовать себя недостойным.*

Xuddi shunday “jonon”, “do’ndiqcha” so’zlarini ham misol sifatida olish mumkin. U fohishaga nisbatan – evfemik; tarbiyali, to’g’ri hayot kechiruvchi ayol uchun disfemik kayfiyat yuzaga keltirish maqsadida qo’llaniladigan funksional birlikdir. Levin munosabati asosida qurilgan muallif nutqiga ko’chgan bu so’z Levinga nisbatan salbiy belgi soya solgan: *Xotinlar ko’pincha xunuk, oddiy odamlarni yaxshi ko’rishadi, deb eshitgan bo’lsa ham, bunga ishonmasdi, chunki u bu narsani o’ziga qarab yechar, o’zi esa faqat **chiroyli, sirli va jonon** ayollarnigina yaxshi ko’rardi.* Bu birlik o’zbek tilida vaqt o’tishi bilan o’ziga evfemik qobiq talab etib qolgan. Rus tilida esa bunday holatni ko’rmaymiz: *Слышал он, что женщины любят часто некрасивых, простых людей, но не верил этому, потому что судил по себе, так как сам он мог любить только **красивых, таинственных и особых** женщин.*

1988-yilda A.M.Katsev evfemizm bilan disfemizm o’rtasidagi farqni keskin qo’ugan edi: *дисфемизм не есть эвфемизм сниженного стиля. Дисфемизм является антиподом, а не разновидностью эвфемизма. Дисфемизм противоположен эвфемизму, но не в стилистическом, а в ассоциативно-денотативном плане* [8, 80]. Lekin bu xulosalar ham asosli, nazarimizda. Har ikki hodisa ham okkazional xarakterga ega bo’lib, ular pragmatik vaziyatda mudom o’zgarib turadi, doimo yangi. Faqat disfemizmdan farqli o’laroq, evfemizm vaqt o’tib, lisoniy birlikka aylanish xususiyatiga ega va, shu bilan birga, o’z evfemik xususiyatini ham yo’qota oladi. Bu tez-tez qo’llanish sababidan amalga oshadi. O.D.Pastuxova aytganidek, “vaqt o’tishi bilan yoqimsiz narsalar evfemizatsiyasi samarasiz bo’ladi, chunki ular biron-bir nozik mavzuni tasvirlashda kutilmaganda aytilganda o’z ma’nosining ravshanligi va aniqligi bilan quloqqa yoqimsiz eshitila boshlaydi” [13]. Disfemizmlar esa ortofemaga aylanmay, salbiy kuchida qolishi bilan xarakterlanadi.

Demak, muayyan tilning o’zida muayyan tushuncha birdan ortiq nomga ega. U har bir tilda muayyan pragmatik maqsadda foydalaniladi. Masalan, “o’zbek tilida “Aldab, chalg’itib, har qanday ishni o’z foydasiga hal qiladigan, makr-hiylaga usta” ma’nosi 15 ta leksemada ifodalangan: *ayyor, mug’ombir, hiylagar, quv, ustomon, makkor, dog’uli, mo’ltoni, qilvir(i), shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa, maston.* Bu ham ma’no va nom o’rtasidagi bog’liqlikning tabiiy emasligini ko’rsatadi” [18]. Tarjimada funksional-pragmatik model orqali uning mosini tanlash yuksak tajriba, mas’uliyat va bilim zaxirasini talab etadi. Zero, sinonimik qatorda nominativ-figural ma’nolar, qolip va hosila ma’nolar, salbiy-ijobiy ma’nolar, monosemantik-polisemantik birliklar mavjud ekan, nutq vaziyatida uning evfemik va disfemik

vazifa bajarishi mumkin bo'lgan jihatlariga tarjimada alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Adaviyotlar ro'yxati

1. Шадрин В.И. Университетское переводоведение: учебник. – СПб.: BBM, 2017. – 292 с.
2. Saparniyazova M., Kadirova Kh., Sabirova M. Motivation, Euphemization, and Dysphemization in Uzbek Names and the Factors that Cause Them to Appear // PAMIR-2, 2023 – The Second Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies. Pages 1677-1681. DOI: 10.5220/0012991900003882. <https://www.scitepress.org/Papers/2023/129919/129919.pdf>
3. Белозерцев А.В. Коммуникативно-функциональная модель перевода: личностно-ориентированный подход // Вестник ИГЛУ. 2013. №4 (25).
4. Горбачевская С.И., Меркиш Т.А. Модель и стратегия перевода короткого рассказа. // Филология. Серия: Гуманитарные науки №2-2 февраль 2021 г. – С. 134-141. DOI 10.37882/2223-2982.2021.02-2.10.
5. Кадилова Х. Ўзбек тилидаги эвфемизмларни рус тилига ўтириш муаммолари // O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 2022, [1/9/1]. https://tsuull.uz/sites/default/files/2.1._oak_ozmu_xabarлари.pdf
6. Кадилова, Х. 2024. Способы выражения эвфемизмов в русском и узбекском языках. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(1/S), 138–148. <https://inlibrary.uz/index.php/foreign-linguistics/article/view/67513>
7. Кадыри А. Минувшие дни (перевод Мухаммаднодыра Сафарова). – Ташкент: Шарк, 2009.
8. Кацев А. М. Языковое табу и эвфемия / А. М. Кацев. – Л.: Ленингр. гос. пед. ин-т им. А.И.Герцена, 1988. – 80 с.
9. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. / Ю. М. Лотман. – М.: Языки русской культуры, 1999. 464 с.
10. Молчанова Г.Г. Коммуникативно-функциональная теория перевода как вид вариативной интерпретации действительности // Вестник Московского университета. Серия 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2015. №3.
11. Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – Волгоград: Ленанд, 2010.
12. Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь. – 3-е изд., перераб. – М.; Флинта: Наука, 2003.
13. Пастухова О.Д. От эвфемизма к дисфемизму. // Слово, высказывание, текст в когнитивном, прагматическом и культурологическом аспектах. Материалы VIII Международной научной конференции 20-22 апреля 2016 года. – Челябинск: Энциклопедия, 2016. – С. 329-331.
14. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – Москва: Наука, 1986.
15. Толстой Л. Анна Каренина (Мирзакалон Исмоилий таржимаси). – Тошкент: Фафур Гулом, 1980.

16. Толстой Л. Анна Каренина. “Эксмо”, 1878.
17. Хаджимусаева Н.Н., Эргашев Ў. “Орзигул”даги юз, бет, жамол, дийдор, турк синонимларининг стилистик хусусиятлари ҳақида. // Дефектологиянинг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. 2016 йил 30 май. – Тошкент: ТДПУ. 2016. – Б. 217-219.
18. Ҳакимова М. Семасиология: ўқув қўлланма. – Тошкент: ХТ “Ҳамидов Н.Х” матбаа корхонаси, 2008. – 100 б.
19. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. Электрон ресурс: http://myuldashev.blogspot.com/2015/03/blog-post_19.html
20. Швейцер А.Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988.
21. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Roman. – Toshkent: www.ziyouz.com kutubxonasi, 2008.